BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SIFAT SO‘Z TURKUMINI O‘QITISHDA YANGI INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH

Raxmatova Sevara G’ayratjon qizi
Guliston davlat pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Mamatqulova Nazira Rustam qizi
Guliston davlat pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Yusufboyeva Farida Oybek qizi
Guliston davlat pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Umarova Mohinur Shavkatjon qizi
Guliston davlat pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda sifat so‘z turkumini o‘qitishga asoslangan darslarning yangi innovatsion metodlar asosida o‘qitilishi, dars rejalarini ham shunga

asosan tuzilishi kerakligi haqida yozilgan. Boshlang‘ich sinflarda innovatsion ko‘rinishdagi metodlar bilan ishlash,dars jarayonini olib borishning eng yaxshi usuli sifatida e’tirof etiladi. O‘quvchilarga dars jarayonini qiziqarli, aniq va tushunarli bo‘lishini ta’minlash ona tili darslarining muhim vazifalaridan biri ekan, ushbu yangi innovatsion metodlardan foydalanish asosiy usul va yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: metod, usul, faollik, kuzatish, innovatsion metodlar, fikrlash, bilim, tushuncha, sifat, o‘yin metodi.

Abstract: In this article, it is written that the lessons should be taught based on new innovative methods based on the teaching of quality vocabulary in primary grades, and lesson plans should be drawn up accordingly. Working with innovative methods in primary classes is recognized as the best way to conduct the teaching process. As one of the important tasks of mother tongue lessons is to make the lesson process interesting, clear and understandable for students, the use of these new innovative methods is one of the main methods and directions.

Key words: method, method, activity, observation, innovative methods, thinking, knowledge, understanding, quality, game method.

Boshlang‘ich sinflarda mustaqil so‘z turkumlarini o‘qitish va o‘rgatish 1-sinfning ikkinchi yarim yilligidan boshlanadi .Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida so‘z turkumlari haqidagi dastlabki tushunchalar so‘z turkumlarining o‘z nomlari bilan emas, balki ular bajaradigan vazifalariga nisbatlab qo‘yilgan nomlar bilan o‘rgatiladi. Bu kabi ko‘rinishda o‘rgatish 1-sinfning ikkinchi yarim yilligidan boshlab 2-sinfni ham o‘z ichiga oladi. 3-sinfdan boshlab esa so‘z turkumlarining o‘z nomlari bilan o‘qitish boshlanadi. Shu jumladan sifat so‘z turkumi ham shu ko‘rinishda o‘rgatiladi. 1-sinfning ikkinchi yarim yilligidan boshlab 2-sinfning oxirigacha sifat so‘z turkumi “sifat” deb emas , balki “shaxs va narsaning belgisini bildirgan so‘zlar” deb o‘rgatiladi. 3-sinfdan esa o‘z nomi , yani, sifat so‘z turkumi nomi bilan keng o‘rganishni boshlashadi.Bu esa umumiylikdan xususiylikka tomon borish, oddiylikdan murakkablikka qarab o‘rganish tamoyillariga asoslab o‘rgatiladi.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda, raqamli texnologiyalar asrida ta‘lim tizimini tubdan o‘zgartirishni talab qiladi. Maktab ta‘limida eski, an’anaviy faqat o‘quvchilarni nazariy jihatdan qoidalarni yodlatishga yo‘naltirilgan ta‘limdan butunlay voz kechgan holda, balki o‘quvchilarni kompleks vazifalarni,bilimlar, mantiq, tahlil, mushohadaga tayangan holda tanqidiy fikrlashga, fikr-mulohazalarni shakllantirib, qaror qabul qilishga,ijodiy yondashishga, insonlar bilan hamkorlik qilish, jamoada faoliyat olib borishga, o‘zining va boshqalarning his-tuyg‘ularini to‘g‘ri va haqqoniy baholashga, ularni boshqarishni,intellektga ega bo‘lishni, diqqatni bir vazifadan boshqasiga tez qarata olishga,moslashuvchan bo‘lishga o‘rgatishni talab qiladi. . Zamonaviy ta’lim dunyodagi tinimsiz o‘zgarishlarga moslashgan, turli muammo va to‘siqlarga tayyor turadigan mutaxassislarning yangi avlodini shakllantirmoqda. Bu kabi ta’lim o‘quvchilarni nafaqat amaliy ko‘nikmalar bilan, balki o‘quvchilarga bugungi kunda zarur bo‘lgan zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishga yordam beruvchi o‘quv usullari bilan qurollantiradi.

Sifat so‘z turkumini o‘qitish innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda tashkil qilinganda, asosan o‘quvchilarda hamkorlik qilgan holda, jamoa muhitida , juftliklarda ishlash ko‘nikmasi shakllanadi, umumiy vazifalar yechimini topishda bir-birlariga yordamlashadilar, o‘quvchilarda ijodiy va mustaqil firlash malakalari shakllanib boradi, o‘quvchilar o‘z ishlari natijasida o‘qishga, ta’lim olishga shaxsan mas’uliyatni his qilishadi.Sifatni o‘rganish yo‘llari materialni leksik va grammatik tomondan izchillik bilan boyitib, murakkablashtirib borishni nazarda tutadi. O‘quvchilar 1- va 2-sinfda sifatning leksik ma’nosini o‘rganadilar, sifatga qanday?, qanaqa? so‘rog‘ini berishga odatlanadilar. 3-sinfda sifat so‘z turkumi o‘z nomida “sifat” deb o‘rganiladi.4-sinfda ilgari o‘tilgan mavzular va ma’lumotlar takrorlanib, grammatik materialga bog‘liqligi bilan qip-qizil, yam-yashil kabi orttirma darajadagi sifatlarning yozilishi va belgilik darajasi o‘rgatiladi.

Boshlang‘ich sinflarda „Sifat" mavzusi quyidagi bosqichlarda o‘rganiladi:

Birinchi bosqich. Sifat haqidagi dastlabki yuzaki ma’lumotlar bu bosqichda sifat so‘z turkumi birinchi tanishtirish, sifatning leksik ma’nosi va so‘roqlari ustida kuzatish olib borish bilan boshlanadi. Predmetning belgilari turli xil bo‘lib, uni rangi, mazasi, shakli, xil-xususiyatlari hidi, tuzilishi tomonidan o‘rganiladi. Shunday ekan, sifat haqidagi ko‘nikmani shakllantirish uchun uning ma’nolarini topish kerak bo‘ladi.O‘qituvchi predmetni yoki uning rasmini ko‘rsatadi, o‘quvchilar uning belgilarini aytadilar va yozadilar. Masalan, (qanday?) olma -yashil, shirin, yumaloq olma; (qanday?) ip - uzun, qizil ip. Albatta, suhbat asosida o‘quvchilar olma, ip so‘zlari nima? so‘rog‘iga javob bo‘lib, predmet nomini bildirishi, qizil, shirin, yumaloq kabi so‘zlar qanday? so‘rog‘iga javob bo‘lib, predmetning belgisi (rangi, mazasi, shakli)ni bildirishni aytadilar. O‘qituvchi atrofimizni o‘rab olgan predmetlarning o‘z belgilari borligini, ular bir-biridan shu belgilar bilan farq qilishini yana bir-ikki misollar yordamida tushuntiradi (Qanday? daraxt-katta, chiroyli, sershox, ко ‘m-ko ‘k daraxt. Qanaqa ? shkaf — oynali, baland shkaf). Xulosa chiqariladi: qanday?, qanaqa? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlar predmet belgisini ifoalab keladi.

Bu bosqichda darslarda –“Ortiqchasini top” o‘yini, -Senkveyn metodini qo‘llaganda kutilgan natijaga erishiladi. Masalan, o‘qituvchi kitob, oq, katta, chiroyli, qizil kabi so‘zlarini o‘quvchilarga beradi, o‘quvchilar esa ularning orasidan ortiqchasini chiqarib tashlashadi. O‘quvchilarda bu jarayon ularning tanqidiy fikrlashini va nutqini rivojlantirish vazifasini bajaradi.

Ikkinchi bosqich. Sifat haqida tushunchani shakllantiradi (3-sinf). Ikkinchi bosqichda asosan ikki vazifa: „Sifat" tushunchasini shakllantirish va o‘quvchilar nutqini yangi sifatlar yordamida boyitib borish,fikrni aniq ifodalash uchun mazmunga to‘g‘ri keladigan sifatlardan nutqda unumli foydalanish ko‘nikmasini o‘stirish belgilab beriladi. „Sifat-tushunchasini shakllantirish o‘quvchilaning „predmetning belgisi" degan umumlashtirilgan kategoriyani o‘rgana olish darajasiga uzviy bog‘langan. Shu maqsadda rang, maza-ta’m, shakl, hajm, xil-xususiyat ifodalaydigan so‘zlar guruhlanadi va shu so‘zlarning xususiyatlari birlashtiriladi.

Bu bosqichda Klaster, Eyler Venn diagrammasidan foydalanilsa, o‘quvchilarning darslarga qiziqishi yanada oshadi. Masalan, o‘qituvchi qanday? so‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘zlarni so‘roq ostiga olib to‘plam hosil qiling kabi vazifalarni qo‘yadi.

Uchinchi bosqich. Shu grammatik mavzu bilan bog‘liq holda ba’zi sifatlarning yozilishini o‘rgatiladi (4-sinf).Uchinchi bosqichda sifat haqidagi bilimlarni rivojlantirish, og‘zaki va yozma nutqda sifatlardan to‘g‘ri,aniq va o‘rinli foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish bilan bog‘liq holda –roq qo‘shimchasi bilan qo‘llangan sifatlarni va ko‘m-ko‘k, yam-yashil kabi sifatlarni to‘g‘ri yozish ko‘nikmasi shakllantiriladi. Ish mazmuni shu vazifalarni bajarishga tayangan holda belgilanadi va o‘quvchilar nutqini o‘stirishga yo‘naltiriladi. Nazariy ma‘lumotlarga asoslanib matnda berilgan otlarning belgilarini bildiradigan sifatlarni tanlab olish, gapda sifat bog‘langan otni aniqlab yozish, otga mos sifatlar tanlab predmetni tasvirlash, berilgan sifatlar yoki so‘z birikmasi bilan gap tuzish kabi mashqlardan foydalaniladi.

Bu bosqichda –“Ha yoki yo‘q” o‘yinidan foydalanganda o‘quvchilarga mavzu haqidagi fikrlarini xulosalashga va o‘quvchilar ongiga tez singishiga, ularni kundalik faoliyatda qo‘llash ko‘nikmasi shakllanadi.

t/r	Savollar	Ha	Yo‘q
1	Sifat shaxs va narsalar nomini bildiradi		+
2	Sifat qanday? Qanaqa? So‘roqlariga javob bo‘ladi.	+	
3	Sifat yasovchi qo‘shimchalarga –q kiradi	+	
4	-chi, -loq, -dosh qo‘shimchalari shaxs ma‘nosini bildiradi	+	

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. K.Qosimova, S.Matchonov, X. G‘ulomova, Sh.Yol‘dosheva, Sh.Sariyev Ona tili o‘qitish metodikasi.. Toshkent ―NOSHIR‖ nashriyoti. 2009 y

2. Boshlang‘ich sinflarda o‘qitishning zamonaviy metodikasi‖ dasturi doirasida trening ishtirokchisi qo‘llanmasi. Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi, Ta‘limni rivojlantirish ilmiy metodika markazi.A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish ilmiy tadqiqot instituti. Toshkent 2023

3. Ona tili darsligi. 4-sinf. –T.: Novda edutainment, 2023